

BOLALARGA OMMAVIY AXBOROT TA’SIRI VA OQIBATLARI

Toshqulova Ozoda
Andijon davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. Bolaning psixik rivojlanishi qanday bo‘ladi, u qanday shakllanadi va unga ta’sir etuvchi omillar nimalardan iborat degan muammo juda qadim zamonlardan beri psixolog va pedagoglarning diqqatini jalb etib kelmoqda. Bolalar psixologiyasi fanining asosiy masalasi bola psixik taraqqiyotini o‘rganishdan iborat ekan, bu masalani hal qilishda, uni tushuntirib berishda turli xil qarashlarni o‘rganish, tahlil qilish muhimdir. Bolalarning ommaviy axborot vositalaridan ko‘p foydalanishi, ularni turli xil kasallikka chaqiradi.

Kalit so‘zlar .Bolalar psixologiyasi, xotira, diqqat, atrof-muhit, oila, o‘yinlar, teleko‘rsatuvlar, ommaviy axborot vositalari, ota-ona, multfilm, o‘yinchoqlar.

Bolalar psixikasini taraqqiy etishini tushuntirib berishga uringan ilk nazariya “Bola katta yoshli kishining kichik nusxasi” degan fikr bilan ta’riflanadi. Bu nazariya tarafdorlari bola sifat e’tibori bilan katta yoshli kishidan hech bir farq qilmaydi. Bola bo‘yi, shuningdek tasavvurlari, xotirasi, diqqati, tafakkuri va boshqa jarayonlaridan anchayin kichkina bo‘lgan katta yoshli kishilardir deb ko‘rsatishga urinadi. Lekin bola psixikasining sifat jihatidan o‘ziga xosligini tushuntirib bera olmaydilar va taraqqiyotning asosiy sabablarini yoritib bera olmaydilar. XVII asrdan boshlab falsafiy va psixologik yo‘nalishlarda bolaning taraqqiyoti haqida kurash boradi: psixologik yo‘nalish tarafdorlari psixik taraqqiyot butunlay muhitga va turmush tajribasiga bog‘liq deyidilar. Xo‘sh odam psixikasi va xatti harakatlarida bor bo‘lgan o‘ziga xos xususiyatlarni nima bog‘laydi –tabiiy, tug‘ma xususiyatlarni yoki hayot davomida orttirgan xususiyatlarmi? degan muammoda turlicha qarashlar maydonga keldi .Bolalar psixologiyasi qobiliyatlarning taraqqiyotini tevarak –atrofdagi muhitning ta’siri bilan tushuntirishga asoslana boshladi. O‘yinlar, o‘yinchoqlar, multfilmlar, ko‘rsatuvlar, kiyimlar, o‘quv qurollari, uy anjomlari o‘zida axborot saqlovchi psixologik omillar bo‘lib, kundalik hayotda har bir inson va ayniqsa, farzandlar duch kelayotgan real voqelik bilan chambarchas bog‘liqdir. Bugungi kunda, bola informatsion oqimlar ta’sirida o‘sayotgan davrda ota-onalar, mahsulot ishlab chiqaruvchilar hamda keng jamoatchilik oldida muhim masala turibdi. Ya’ni “Biz bolalarga qanday kiyimlar xarid qilyapmiz?”, “Qaysi multfilmlarni tomosha qilyapti?”, “Qanday uy jihozlari, o‘qish qurollarini xarid qilib beryapmiz?”. Bu kabi savollarga o‘z vaqtida javob olinmasa, keyinchalik: “Farzandimiz nima uchun urishqoq, bemehr?”, “Farzandim o‘zgarib qolyapti...”, “Ilgari bunday emas edi-ku...”, “G‘alati harakatlar qilyapti...” degan ikkilamchi fikrlar yuzaga kelishi mumkin. Quyida “Oila” markazi tomonidan olib borilayotgan “Bolalarni ularning sog‘lig‘i va axloqiga zarar yetkazuvchi ma’lumotlardan himoya qilish” nomli tadqiqotning xorijiy amaliyotni o‘rganish natijalarini sizga havola etamiz. Xulosa esa o‘zingizdan.

Amerikalik psixologlarning ta’kidlashicha, teleko‘rsatuv va multfilmlarni ortiqcha ko‘rish bolada hadik va hayajonni yuzaga keltiradi. Bolani shaxs sifatida rivojlanishini, ayniqsa, mustaqil fikrlash qobiliyatini tormozlaydi. Bolalar eng ta’sirchan va himoyalangan tomoshabin bo‘lib, agar ota-onalar 9 oylik bolani o‘zlari bilan bo‘ladigan jonli muloqotni televizor bilan bo‘ladigan muloqotga almashtirishsa, 20% bolada rivojlanish ortda qolar ekan. Agar teleko‘rsatuvlarni ko‘rish shu tarzda davom etaversa, 3 yoshga yetganda rivojlanishda o‘z tengdoshlariga nisbatan 1 yilga ortda qolib ketar ekan. Bundan tashqari, 12 yoshga borganda bolalar televizor orqali 100 mingta zo‘ravonlik va qotilliklar guvohiga aylanib qolar ekan. Shuningdek, psixologik kuzatuvlardan ko‘rinadiki, hozirgi davrda 4 yoshdagi bolalarning 25 %ida nutqida nuqsonlar kuzatilmoqda. Taqqoslash uchun ushbu faktga murojaat qilish o‘rinli: 20-asrning 70-yillarida nutqida nuqson shu yoshdagi bolalarning faqatgina 4 %ida kuzatilgan ekan.

Mashhur kanadalik psixolog A. Bandura ommaviy axborot vositalarini inson shaxsiga ta’sirini tadqiq etgan. Tajribada 3-7-yosh bolalar ishtirok etishgan, ularga katta odam tomonidan qo‘g‘irchoqqa negativ munosabatni ifoda etilgan qisqa metrajli multfilmlar ko‘rsatilgan. Multfilmni ko‘rib bo‘lgach, bolalarga 10-20 minut o‘ynash imkoniyati berilgan. Eng e’tiborli tomoni shundaki, bolalarning aksariyat qismi aktyor tomonidan ko‘rsatilgan film lavhasidagi agressiyani takrorlashga harakat qilganligi kuzatildi. Chunki u ko‘rgan multfilmidagi qahramon obraziga o‘zini qo‘yib idrok

“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.

etadi. O‘zini multfilm qahramoni bilan taqqoslash va andoza olish orqali u yaxshi yoki yomon illatlarni o‘ziga singdiradi. Uning fikriga ko‘ra, g‘arb kinomahsulotlari tufayli juda ko‘p bolalar johil, urushqoq, qahri qattiq bo‘lib qolayotganligi va normal insoniy hislardan ancha yiroq bo‘lib qolishlari ko‘rinar ekan. Ekranida bolani kuzatadigan bunday negativ vaziyatlari bola uchun go‘yoki nizoli vaziyatlarda qo‘llashi zarur bo‘lgan model bo‘lib xizmat qilishi mumkin ekan. Biz bolalarni butunlay televizordan mahrum qilish kerak degan fikrdan yiroqmiz, aksincha ba’zi shunday ko‘rsatuvlar borki ular bolalarga dunyoqarashning shakllanishida juda foydali bo‘ladi. Biz bolalarimizga chet el mahsulotlarini hazm qildirishni to‘xtatib, o‘z milliyligimiz, din-diyonatimiz va urf-odatlarimizga to‘g‘ri keladigan mahsulotlarni o‘zimiz ishlab chiqarishimiz kerak demoqchimiz. Buning uchun har qanday imkoniyat bor. To‘g‘ri bu vaqt va harajat talab qilishi haqiqat. Xo‘sh, nima bo‘libdi, kelajagimiz poydevorlari bo‘lgan bolalar uchun har qancha harajat qilsak arziydi. Agar biz avvalgidek Imom Buxoriylar, Imom Termiziylar, Samarqandiy va Xorazmiylar chiqishini chin dildan istasak, bolalarimizni ularning onalari tarbiyalagani kabi tarbiyalashimiz, ulardek sidqi dildan xizmat qilishimiz kerak. Shundagina ko‘zlangan maqsadga yetishishimiz mumkin.

Xulosa: qilib aytadigan bo‘lsak, bola uchun odatiy bo‘lgan vaziyatlarning buzilishi bola hayot tarzi, kun tartibining o‘zgarishi sabab bo‘lishi mumkin. Bu esa ba’zida stress holatini yuzaga keltiradi. Shu sababli bolalarimizni asraylik uni ommaviy axborot vositalaridan uzoqlashtirib, kitoblar va unga eng kerakli bo‘lgan narsa mehri beraylik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

F.I.Xaydarov, N.I.Xalilova, Umumiy psixologiya/darslik/Toshkent, “INNOVATSIYA-ZIYO”-2019, 360 bet;

Z.Nishanova, G.Alimova. Bolalar psixologiyasi va uni o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma.-T.:O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006. 160 bet;

K .Sodiqov, S .H .Aripova, G .A .Shahmurova, «Yosh fiziologiyasi va gigiyena». «Yangi asr avlodi», 2009-yil.